SURXONDARYO VILOYATI UZUN TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 31-oktabr | 360-8-118-Q/24 | Uzun tuman hokimligi

Surxondaryo viloyati hokimining 2024-yil 18-oktabrdagi O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati viloyat tashkiloti insonparvarlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida 693-8-0-Q/24-son qarori ijrosini ta’minlash haqida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6-moddasiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati to‘g‘risida” 1992-yil 28-maydagi PF-411-sonli Farmoni, 2018-yil 4-maydagi “Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlari rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5430-sonli Farmoni, Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati to‘g‘risida” 1992-yil 5-oktabrdagi 458-sonli qarori hamda 2020-yil 26-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 515-sonli hamda viloyat hokimining 2024-yil 18-oktabrdagi O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati viloyat insonparvarlik faoliyatini qo‘llab-quvatlash to‘g‘risidagi 693-8-0-Q/24-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Viloyat hokimining 2024-yil 18-oktabrdagi O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati viloyat insonparvarlik faoliyatini qo‘llab-quvatlash to‘g‘risidagi 693-8-0-Q/24-son qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. 2024-yil 11-20-noyabr kunlari O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati tuman tashkilotining insonparvarlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash xayriya o‘n kunligi o‘tkazilsin.

3. O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati tuman tashkilotining insonparvarlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida xayriya o‘n kunligini o‘tkazish tashkiliy qo‘mitasi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tumandagi barcha tashkilot, muassasa, idora va korxonalarga xayriya o‘n kunligi davomida faol ishtirok etishlari tavsiya etilsin.

5. Tuman hokimligi, barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar, tashkilot, korxona va muassasalar rahbarlari xayriya o‘n kunligini uyushqoqlik bilan o‘tkazishda O‘zbekiston

Qizil Yarim Oy jamiyati tuman tashkilotiga ixtiyoriy beg‘araz yordam ko‘rsatilishi tavsiya etilsin.

6. Tuman Madaniyat bo‘limi (Lavozimiga ko‘ra), tuman Sport maktabi (Z.Iminov) o‘n kunlik davomida xayriya konsertlarini, sport tadbirlarini tashkil etsinlar va ulardan tushgan mablag‘ O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati tuman tashkiloti hisob raqamiga o‘tkazilishi tavsiya etilsin.

7. Tuman Mudofaa ishlari bo‘limi (S.Xudoyqulov), Milliy gvardiya tuman bo‘limi (E.Saidov), tuman Ichki ishlar bo‘limi (O.Ergashev) shaxsiy tarkib o‘rtasida O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati tuman tashkilotiga ixtiyoriy ravishda shaxsiy badal topshirish va mablag‘ to‘plash yuzasidan tushuntirish ishlarini tashkil etsin.

8 Barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar, tashkilot, korxona va muassasalar rahbarlariga bazaviy hisoblash miqdorining 10 foiz miqdorida xayriya mablag‘larini O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati tuman tashkilotining ATB “Agrobank” tuman filialidagi MFO:00341, INN:202636110, 20212000900545604001 hisob raqamiga o‘tkazish tavsiya etilsin.

9. Belgilab qo‘yilsinki, xayriya o‘n kunligi munosabati bilan to‘plangan mablag‘lar jamiyat Ustaviga muvofiq yolg‘iz keksalar, nogironlar, boquvchisini yo‘qotgan va kam ta’minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalashga, tabiiy va texnogen falokatlarda jabrlanganlarga gumanitar yordam hamda favqulodda vaziyatlarda birinchi yordam ko'rsatish uchun zaxira yaratish ishlariga sarflanadi.

10. Tuman “Bobotog‘ tongi” gazetasi bosh muharriri (I.Bobokalonov) va tuman hokimligi Axborot xizmati (O‘.Mingboyeva) ga xayriya o‘n kunligini o‘tkazish davomida Qizil Yarim Oy xalqaro harakatining faoliyatini keng yoritish tavsiya etilsin.

Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari B.Xasanov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **BOZOROV X.SH.**

Uzun tuman hokimining
2024-yil 31-oktabrdagi
360-8-118-Q/24-son qaroriga
1-ilova

O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati tuman tashkilotining insonparvarlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida xayriya o‘n kunligini o‘tkazish tashkiliy qo‘mitasi

T A R K I B I

B.Xasanov		tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, ***Tashkiliy qo‘mita raisi***
Z.Abdanov		tuman hokimining o‘rinbosari, ***Tashkiliy qo‘mita raisi o‘rinbosari***
N.Xodjageldiyev		tuman hokimining o‘rinbosari
S.Gulboyeva		tuman hokimining o‘rinbosari
Sh.Yusupov		tuman hokimining o‘rinbosari
Sh.Abduroziqov		O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati tuman tashkiloti raisi, ***Tashkiliy qo‘mita mas’ul kotib***i
Sh.Xusanov		tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limi boshlig‘i
O.Ergashev		tuman tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i
E.Saidov		Milliy gvardiya Surxondaryo viloyati tuman bo‘limi boshlig‘i
M.Jo‘rayev		tuman Qishloq xo‘ialigi boshqarmasi boshlig‘i
B.Baratov		tuman Moliya bo‘limi boshlig‘i
S.Xudoyqulov		tuman Mudofaa ishlari bo‘limi boshlig ‘i
Sh.Qosimov		tuman Soliq bo‘limi boshlig‘i
S.Shukurov		tuman Xalq banki boshqaruvi raisi v.v.b
E.Xusanov		tuman Agrobank boshqaruvi raisi
A.Usmanov		tuman Mikrokreditbank boshqaruvi raisi
V.Azimov		tuman G‘aznachilik bo‘limi boshlig‘i
Lavozimiga ko‘ra		Tuman yo‘llardan foydalanish UK tuman bo‘limi boshlig‘i
S.Yo‘ldoshev		tuman tibbiyot birlashmasi boshlig‘i
S.Tashanov		tuman Yoshlar ishlari agentligi boshlig‘i
M.Abdushukurov		tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i
A.Sariyev		Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i
Lavozimiga ko‘ra		tuman Madaniyat bo‘limi boshlig‘i
Z.Iminov		tuman Sport maktabi direktori
A.G‘afforov		“Uzun tuman elektr ta’minoti” rahbari

X.Turdiyev		Uzun tuman “Gazta’minoti” bo‘limi boshlig‘i
F.Kenjayev		“Suvoqova” Ma’suliyati cheklangan jamiyati Uzun tuman filiali boshlig‘i
M.Shodmonov		Tuman Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i
I.Bobokalonov		Tuman “Bobotog‘ tongi” gazetasi bosh muharriri
O‘.Mingboyeva		Tuman hokimligi Axborot xizmati rahbari

Izoh: Tashkiliy qo‘mita a’zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning vakolatlari lavozimiga tayinlangan rahbar zimmasiga yuklatiladi.